



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta’siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug’urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta’siri.....	153
Mirzayeva L.S. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo‘llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo’stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo’stonova N.A., Nematjonova R.D. O‘zbekistonda aholining daromadlari va iste’mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta’siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo‘yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro‘li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta’minlashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning o‘rni.....	221
Mamatov B.S. O‘zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta’minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o‘rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o‘rtasidagi munosabatlar..	272

**MAMLAKATIMIZDAGI XUSUSIY KORXONALARNING
RAQOBATBARDOSHLILIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

**СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЧАСТНЫХ
ПРЕДПРИЯТИЙ В НАШЕЙ СТРАНЕ**

**WAYS TO INCREASE THE COMPETITIVENESS OF PRIVATE ENTERPRISES IN OUR
COUNTRY**

Xamzaev Azizbek Nematovich
PhD, Aniq va Ijtimoiy fanlar universiteti

Mirzajonov Mohirjon
Aniq va Ijtimoiy fanlar universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda amaliy mexanizmlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqobatbardoshlik tushunchasining iqtisodiy mazmuni, uning shakllanish omillari va strategik boshqaruv bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Xususan, M.Porterning raqobat ustunligi nazariyasi, resurslarga asoslangan yondashuv (Resource-Based View) hamda innovatsion rivojlanish konsepsiyalari asosida korxonalar samaradorligini oshirish yo‘llari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, sifat menejmenti tizimlarini joriy etish, raqamli transformatsiya, marketing strategiyasini takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash kabi ustuvor yo‘nalishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, globalizatsiya va raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion faollik hamda eksport salohiyatining ahamiyati alohida e’tirof etiladi. Tadqiqot natijalari korxonalarda strategik boshqaruvni kuchaytirish, barqaror raqobat ustunligini shakllantirish va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka erishish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Raqobat, strategik boshqaruv, globalizatsiya, raqamli iqtisodiyot, transformatsiya, cheklangan resurslar

В данной статье представлен всесторонний анализ теоретических и методологических основ и практических механизмов повышения конкурентоспособности предприятий. Исследование освещает экономическое содержание концепции конкурентоспособности, факторы её формирования и неразрывную связь со стратегическим управлением. В частности, научно обоснованы пути повышения эффективности предприятия на основе теории конкурентных преимуществ М. Портера, ресурсного подхода и концепций инновационного развития. В статье анализируются такие приоритетные направления, как оптимизация производственных затрат, внедрение систем управления качеством, цифровая трансформация, совершенствование маркетинговой стратегии, развитие человеческого капитала и обеспечение финансовой стабильности. Особое внимание уделяется также важности инновационной деятельности и экспортного потенциала в контексте глобализации и цифровой экономики. Результаты исследования служат основой для разработки научно-практических рекомендаций по укреплению стратегического управления на предприятиях, формированию устойчивого конкурентного преимущества и достижению долгосрочной экономической эффективности.

Ключевые слова: Конкуренция, стратегическое управление, глобализация, цифровая экономика, трансформация, ограниченные ресурсы

This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological foundations and practical mechanisms for increasing the competitiveness of enterprises. The study highlights the economic content of the concept of competitiveness, its formation factors and its inextricable link with strategic management. In particular, the ways to increase the efficiency of an enterprise based on M. Porter's theory of competitive advantage, the resource-based approach (Resource-Based View) and the concepts of innovative development are scientifically substantiated. The article analyzes such priority areas as optimizing production costs, implementing quality management systems, digital transformation, improving marketing strategy, developing human capital and ensuring financial stability. The importance of innovative activity and export potential in the context of globalization and the digital economy is also particularly recognized. The results of the study serve to develop scientific and practical recommendations on strengthening strategic management in enterprises, forming a sustainable competitive advantage and achieving long-term economic efficiency.

Keywords: Competition, strategic management, globalization, digital economy, transformation, limited resources

Hozirgi innovatsiyalar, texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot rivojlangan bir kunda korxonalarining raqobatlarini o‘zaro kuchayib bormoqda. XXI asr bozorlarida kundan kunga sifati oshib borayotgan mahsulot va xizmatlar nafaqat sifat balki narx va boshqa bir qator foydali tarablari bilan raqobat yuritishga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa korxonalar yoki xizmat ko‘rsatish markazlaridagi raqobat kuchayishini o‘z o‘zidan kuchaytirib beradi. Bunday korxonalarining raqobatbardosh va tizimli va strategik boshqaruvi hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etmoqda. Biz o‘zimizning bir birlari bilan raqobatlashayotgan korxonalardan qo‘rqmasdan o‘z o‘rnimizni saqlab qolishni istasak raqobat tushunchalarini yaxshi va samarali tarzda o‘rganishimiz lozim bo‘ladi.

Raqobat (competition) [1] nima — bu bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektlarning cheklangan resurslar va iste‘molchilar talabini jalb etish uchun o‘zaro kurash jarayonidir. Raqobat iqtisodiy tizimda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, balki ma‘lum iqtisodiy shart-sharoitlar asosida shakllanadi. Uning shakllanish jarayoni quyidagi omillarga tayanadi:

1. Resurslarning cheklanganligi (Scarcity)

Resurslar inson talablariga qarab turli miqdor va qiymatlar ega bo‘ladi bu resurs tanqisligi sababli kelib chiqadi. Iqtisodiyotning asosiy muammolaridan [2] biri — resurslar cheklangan, ehtiyojlar esa cheksizdir. Bunga nimalar kiradi xomashyo, kapital, bozor talabi va h.k. Demak o‘z o‘zidan kelib chiqadiki raqobatning birlamchi manbalaridan biri cheklanganlik qonunidir. Ishlab chiqaruvchi korxonalar va xizmat ko‘rsatuvchi markazlar buni ahamiyatga olishi lozim. Bunga misol qilib quyidagi vaziyatga e‘tibor berishimiz kerak bo‘ladi. Misol uchun bir shaharda ikkita ichimlik suvini ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud bo‘lsa va ular bir birlari bilan raqobat qilishda marketing, suvning qadoqlanishi, narxi va boshqa shunga o‘xshash narsalar orqali musobaqa olib borishadi. Shuningdek ularda suv resursi cheklangan bo‘lganligi tufayli o‘z foydalarini oshirish uchun narx va optimal bo‘lgan barcha harakatlarni qilishadi shuningdek ular nafaqat narx balki ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati va foydasini ham oshirishga majbur bo‘lishadi. Biroq korxonalardan biri narxni oshirib qo‘yishiga qaramay uning mahsulotlari hali ham bozorda talab paydo bo‘lishiga sabab bo‘lsa bu korxonaning mijozlari (loyal customer) ya‘ni sadoqatli mijozlar qatlami mavjud sirasiga kiradi. Shuning uchun cheklangan resurslar orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga har doim bozorda talab ko‘proq bo‘ladi. Buni quyidagi jadval orqali ham ko‘rishimiz mumkin:

1-jadval

Korxonalar nomi	Suv manbasi (mln litr/yil)	Mavjud resurslar (%)	Maksimal ishlab chiqarish (mln litr)	Narx (\$/litr)	Bozor ulushi (%)	ED (mln litr)	Samaradorlik indeksi
1-korxonalar	5.0	80	4.0	0.50	40	3.8	0.85
2-korxonalar	4.0	70	2.8	0.52	30	2.5	0.72

1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki bizdagi suv manbasi (1- korxonada misolida) ya‘ni bizda ishlab chiqarishimiz uchun kerakli bo‘ladigan xomashyo cheklanganini ko‘rishimiz mumkin bu degani ishlab chiqaradigan mahsulotimiz 5 mln litrdan oshira olmaymiz. Ikkinchi korxonada esa 4 mln litr bu korxonada ham xuddi shunday. Bu ikki korxonaning bozor ulushlari 40 % ga, 30% ni tashkil etadi ya‘ni shahardagi har 10 litr suvning 4 litri 1- korxonaning ulushi ushbu korxonaga tegishli bo‘ladi, 2-korxonaning ulushi ham xuddi shu tarzda har 10 litr suvning 3 litri 2-korxonada ulushi hisoblanadi. ED bizda (Economic Demand) Korxonaning ishlab chiqaradigan mahsuloti bo‘yicha iste‘molchilar tomonidan sotib olishga tayyor bo‘lgan hajmi hisoblanadi.

Porter nazariyasiga ko‘ra, korxonada ichki resurslari va tashqi bozor muhitining uyg‘unligi barqaror ustunlikni ta‘minlaydi. Mazkur yondashuv xususiy korxonalar uchun strategik rejalashtirish muhimligini ko‘rsatadi. Raqobatbardoshlik tushunchasi strategik menejment nazariyasi doirasida chuqur tahlil qilingan. Michael Porter (1985) o‘zining “Competitive Advantage” asarida korxonada raqobat ustunligini ikki asosiy strategiya — xarajatlar yetakchiligi va differensiallash orqali shakllantirishini asoslab bergan. Uning “Five Forces” modeli tarmoq ichidagi raqobat intensivligini aniqlash imkonini beradi.

Jay Barney (1991) o‘z tahlillarida quyidagi natijalarga erishgani ma‘lum. VRIN modeli orqali korxonada resurslari (qimmatli, noyob, taqlid qilib bo‘lmaydigan va o‘rnini bosib bo‘lmaydigan) barqaror raqobat ustunligini shakllantirishini asoslagan.

Mazkur yondashuvga ko‘ra, xususiy korxonalarining ichki salohiyati — intellektual kapital, texnologik baza va boshqaruv tajribasi — asosiy ustunlik manbai hisoblanadi.

Resurslarga asoslangan yondashuv korxonada raqobatbardoshligini uning ichki resurslari va imkoniyatlari orqali tushuntiradi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, barqaror raqobat ustunligi tashqi bozor sharoitidan ko‘ra ko‘proq korxonaning o‘ziga xos ichki salohiyatiga bog‘liq.

Mazkur yondashuvning zamonaviy shakli Jay Barney (1991) tomonidan ishlab chiqilgan. U VRIN mezonini taklif qilgan bo‘lib, korxonada resurslari quyidagi to‘rtta xususiyatga ega bo‘lishi lozim:

- a) Valuable (Qimmatli) – daromad yoki samaradorlikni oshiradi;
- b) Rare (Noyob) – raqobatчилarlarda mavjud emas;
- c) Inimitable (Taqlid qilib bo‘lmaydigan) – oson nusxa ko‘chirilmaydi;
- d) Non-substitutable (O‘rnini bosib bo‘lmaydigan) – muqobil resurs bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Agar resurslar ushbu mezonlarga javob bersa, ular korxonaga uzoq muddatli raqobat ustunligi beradi.

Resurs turlari

RBV nazariyasida resurslar uch guruhga bo‘linadi:

1. Moddiy resurslar – ishlab chiqarish uskunalari, moliyaviy kapital, infratuzilma.
2. Nomoddiy resurslar – brend, patent, texnologiya, korporativ madaniyat.
3. Inson resurslari – xodimlar bilim va ko‘nikmalari, boshqaruv tajribasi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa nomoddiy va intellektual resurslar barqaror ustunlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

2. Innovatsion raqobat (Innovative competition)

Schumpeter (1942) nazariyasi [3] ga ko‘ra, innovatsiyalar — eski texnologiya va ishlab chiqarish tizimlarini o‘rnini yangi, samaraliroq va innovatsion tizimlar bilan bosib o‘tadi. Bu jarayon creative destruction (ijodiy vayronkorlik) deb ataladi. Raqobat faqat narx yoki marketing orqali emas innovatsiyalar orqali ham vujudga kelishi mumkin. Ya‘ni qaysi korxonaning ishlab chiqarish jarayonidagi texnologiyalari va ularning zamonaviyligi raqobat bozorida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek buni yuqoridagi suv ishlab chiqaradigan korxonalar misolida ko‘radigan bo‘lsak 1-korxonada o‘zining shaxsiy suvni yangi va zamonaviy filtrlar orqali o‘tkazib ishlab chiqara boshladi, bu esa unga suvning sifati va ishlab chiqarish jarayonidagi vaqtdan yutish imkonini berdi. Bundan ma‘lum bo‘ladiki ishlab chiqarish jarayonida qandaydir jarayonlardan 0,01 sekund tezroq bo‘lish ham ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tezroq bozor rastalariga yetib borishi va ularni iste‘mol

uchun tarqatishda katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun katta-katta ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan korxonalar vaqtdan yutishga harakat qilishadi.

Raqobat bozorlarida institutsional yondashuv (Institutional Approach)

Institutsional yondashuv nima — Iqtisodiy faoliyatni tushinishda va tahlil qilishda ishlatilishadi. Buning raqobat bozorida aloqasi raqobat qilayotgan bozordagi korxonalar ishtirokchilari qat’iy nazorat qilinadi va ular qonun doirasida raqobat qilishda turli nizom va tartib choralarni belgilab beriladi.

Mamlakatimizda xususiy korxonalarda raqobat bardoshlikni oshirish uchun korxonalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulotni diversifikatsiya qilish zarur. Innovatsion mahsulotlar yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadi va eksport imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek soliq siyosatining barqarorligi, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash tadbirkorlik faolligini oshiradi. Ammo kelgusida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi. Shu bilan birgalikda malakali kadrlar tayyorlash, xodimlarni qayta tayyorlash va menejment kompetensiyalarini oshirish korxonalar samaradorligini bevosita belgilaydi.

Joseph Schumpeter aytganidek iqtisodiy nazariyada innovatsiya raqobatning asosiy drayveri sifatida qaraladi. Joseph Schumpeter innovatsiyani “ijodiy vayronkorlik” jarayoni sifatida talqin qilib, aynan yangi texnologiyalar eski ishlab chiqarish tizimlarini siqib chiqarishini ta’kidlagan(2-jadval).

2-jadval

№	Omil nomi	Mazmuni	Korxonaga ta’siri	Amaliy taklif
1	Innovatsion faoliyat	Yangi mahsulot va texnologiyalarni joriy etish	Qo‘shilgan qiymat oshadi, bozorda farqlanish yuz beradi	R&D bo‘lim tashkil etish
2	Texnologik modernizatsiya	Zamonaviy uskunalarni va avtomatlashtirish	Ishlab chiqarish tannarxi kamayadi	Raqamli ishlab chiqarish tizimlari
3	Inson kapitali	Xodimlar malakasi va boshqaruv sifati	Mehnat unumdorligi oshadi	Doimiy trening va qayta tayyorlash
4	Eksport yo‘nalishi	Tashqi bozorlarga chiqish	Valyuta tushumi va barqarorlik oshadi	Xalqaro sertifikatlash
5	Moliyaviy barqarorlik	Kapital tuzilmasi va likvidlik	Risk darajasi kamayadi	Diversifikatsiyalangan moliyalashtirish
6	Institutsional muhit	Huquqiy va soliq sharoitlari	Biznes xavfsizligi ta’minlanadi	Byurokratik to‘siqlarni qisqartirish
7	Marketing strategiyasi	Bozor sementatsiyasi va brending	Sotuv hajmi oshadi	Raqamli marketingni rivojlantirish

Shu bois xususiy korxonalar innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi zarur deb ta’kidlab o‘tadi o‘zining maqolalarida. Michael Porter raqobat ustunligini shakllantirishda xarajatlar yetakchiligi va differensiallash strategiyasini asoslab bergan. Mamlakatimiz xususiy korxonalari uchun differensiallash (sifat, servis, brend) strategiyasi ayniqsa dolzarbdir.

Raqobatbardoshlikni shartli ravishda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$R = f(I + T + K + M + E)$$

Bu yerda:

R – raqobatbardoshlik darajasi

I – innovatsiya

T – texnologiya

K – kadrlar salohiyati

M – moliyaviy barqarorlik

E – eksport salohiyati

Omillar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bittasining sustligi umumiy natijaga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun har bir ko‘rsatkichlarni (stabil) barqaror ushlab turishga harakat qilish kerak. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llarini yaxshi va tizimli ishlab chiqilayotganda quyidagi omillarga e‘tibor berish lozim:

Innovatsion faoliyat — bu yangi mahsulot, xizmat, texnologiya yoki boshqaruv usullarini joriy etish jarayonidir. Iqtisodiy nazariyada Joseph Schumpeter innovatsiyani iqtisodiy o‘shishning asosiy omili sifatida baholagan. Korxonada innovatsiyalarni rivojlantirish mahsulotning qo‘shilgan qiymatini oshiradi, bozorda farqlanishni ta‘minlaydi va uzoq muddatli ustunlik yaratadi.

Raqamlashtirish — ishlab chiqarish, boshqaruv va savdo jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishdir. ERP, CRM tizimlari, elektron tijorat platformalari xarajatlarni optimallashtiradi va boshqaruv shaffofligini oshiradi. Natijada operatsion samaradorlik kuchayadi va qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi.

Inson kapitali — bu xodimlarning bilim, ko‘nikma va professional salohiyati yig‘indisidir. Malaka oshirish, treninglar va menejment kompetensiyalarini rivojlantirish mehnat unumdorligini oshiradi. Strategik boshqaruv nazariyasida inson omili korxonada samaradorligining hal qiluvchi faktori sifatida qaraladi.

Ekspart geografiyasini kengaytirish — mahsulotni yangi tashqi bozorlarga olib chiqish va savdo hamkorlari sonini ko‘paytirishdir. Bu korxonada daromadlarini diversifikatsiya qiladi, valyuta tushumini oshiradi va ichki bozorga qaramlikni kamaytiradi. Xalqaro standartlarga moslashish raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi.

Institutsional muhit — bu huquqiy, moliyaviy va tashkiliy qoidalar tizimidir. Douglass North nazariyasiga ko‘ra, barqaror institutsional tizim iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlaydi. Byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, mulk daxlsizligini himoya qilish va soliq siyosatini barqarorlashtirish xususiy sektor rivojlanishining asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Michael Porter (1985). *Competitive Advantage. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations.*
2. W. Strahan and T. Cadell.
3. Joseph Schumpeter (1942). *Capitalism, Socialism and Democracy.* Harper & Brothers.
4. Organisation for Economic Co-operation and Development (2018). *Oslo Manual: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation.*
5. Erik Brynjolfsson & Andrew McAfee (2014). *The Second Machine Age.* W.W. Norton. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy samaradorlik va raqobatga ta‘siri.
6. World Bank (2016). *World Development Report: Digital Dividends.* (Raqamli transformatsiyaning biznes va iqtisodiyotga ta‘siri.)
7. Gary Becker (1964). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis.* University of Chicago Press. (Inson kapitali nazariyasining asoschisi.)
8. Paul Krugman (1979). “Increasing Returns, Monopolistic Competition, and International Trade.” *Journal of International Economics.* (Ekspart geografiyasini kengaytirish)
9. World Bank (2020). *Human Capital Index Report.* (Inson kapitalining iqtisodiy o‘shish va unumdorlikka ta‘siri.)